

“QIZIL VA QORA” ASARIDAGI OBRAZLAR TAHLILI

Munisa NURULLAYEVA,

*Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti
o‘zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15878507>

Adabiyotshunoslikda ijodkor o‘z missiyasini yetkazib berishidagi asosiy vositalardan biri obraz yaratish mahoratidir. Qahramonlarda yozuvchi istagini ko‘rsatuvchi belgilarning elementlari tadrijiy tartibda ko‘rsatilib boradi. Sharq va G‘arb adabiyotida dunyoqarash va an‘analarning ta‘sirini inobatga olgan holda bu jarayon turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Stendalning jahon adabiyotining yorqin namoyondasi. Uning psixologik realizmning ilk namunasi sifatida tanilgan “Qizil va qora” romani 1830-yilda nashr etilgan bo‘lib, asar voqealari 1820-yillarda Fransiyada bo‘lib o‘tadi. To‘g‘ri, aynan o‘sha yillarda bu asar muallifga juda katta shuhrat keltirmadi. Hatto XIX asr oxirlarida Rossiya va Vatikan davlatlari bu asarni taqiqlangan kitoblar ro‘yxatiga kiritdi. Ammo keyingi asrlarda romanning qiymati oshdi. Xo‘sh, nima sababdan ayrim davlatlar asarga nisbatan salbiy munosabatda bo‘ldi? Negaki muallif jamiyatdagi chirkinliklarni butun tizimning qanchalik buzilganini, ushbu asarda mahorat bilan tasvirlaydi va bu holat nafaqat Fransiyada, balki sayyoramizning ko‘plab davlatlarida hukm surayotganligini badiiy mahorati bilan ko‘rsatib beradi. Lekin eng yomoni bularning bari hali hanuz o‘zgarmadi. Boylarning hayoti, adolatsizligi, oddiy xalqni oyoqosti qilishi, ma‘nan zarar berishi, umuman, boylar va kambag‘allar o‘rtasidagi farq ham haqqoniy tarzda ochib berilgan.

Muallifning asar orqali o‘zi uchun zararga, jamiyat, oddiy xalq uchun foydaga xizmat qilgan jihati faqatgina HAQIQATni yozganidir. Xuddi “O‘tkan kunlar”da Qodiriy sevgi mojarolari aks etgan voqealarni yozar ekan, asosiy maqsadi bo‘lgan jamiyat ahvoli, chirkin siyosiy tuzumni ochib berganidek, Stendal ham aynan shu usuldan, mahurat bilan foydalandi. Asarning bosh qahramoni Jyulen obrazi hayot yo‘li orqali butun romanning maqsadi, hattoki asarning nima sababdan bunday nomlanishi ham oydinlashadi. Ya‘ni Qizil - bu shijoatli yoshlik, oliy maqsadga erishish istagi, jo‘shqin qon ramzi. Qora - shu maqsadga yetish uchun oson yo‘l, hiyla-nayrang bilan erishiladigan cho‘qqi. Bundan tashqari, nazarimda, asar syujetiga qizil va qora quti detallari ham, bejiz kiritilmagan. Bilamizki, ma‘lum bir detal biror vazifani bajarmasa, u detal hisoblanmaydi va kiritilmagan bo‘lardi. Albatta, bu qutilar roman nomi uchun turtki bo‘lgan deya olmaymiz, ammo asar mohiyatini ochishda oz bo‘lsa-da, xizmat qilgan. Negaki oddiy bir inson bo‘lgan - Jyulenning barcha sirlari,

o‘zining e‘tiqodi, asarlari shu qora qutida jamlangan. O‘zining bu haqiqatlarini doimo sir saqlab, yuqori mansabdagi lar buni ko‘rib qolishidan qo‘rqib yashaydi va qo‘lga tushishiga oz qolganida qutini yondirib yuboradi. Badavlat de Renal xonimning qizil qutisi esa hamma boylarda nima bo‘lsa shu, ya’ni zeb-ziynat, javohirlarga to‘la edi. Uning butun boyligi shu edi, Jyulenniki esa qora qutisidagi ma’naviy boyligi. Mana o‘rtadagi yana bir faqr, tabaqalanish. Endi esa asaridagi asosiy va tushunib bo‘lmas, murakkab obrazlar : Jyulen va de Renal (Luiza) xonimning xarakteri, ruhiyati tahliliga o‘tsak.

Jyulen - taxtdan ag‘darilgan Napaleonning tarafdori bo‘ladi. Mavqega erishish uchun turli yo‘llardan foydalangan va o‘ta ta’sirchanligi bilan ko‘plab xatolarga yo‘l qo‘ygan o‘smir sifatida tasvirlangan. Aslida, Jyulen Farnsiyadagi qonun-qoidalardan norozi bo‘ladi, adolatsizlik, erksizlik uchun doim kurash olib boradi. Ammo u bu qaltis niyatlarini yashiraverib, o‘zi o‘sha qabih muhitiga tezda moslashib ketadi. Muallifning o‘zi Jyulenni ikki qismga ajratadi: ehtirosli va shuhratparast. Murakkab jihati ham shunda. Tabiiy his-tuyg‘usi kuchliligidan or-nomusga zid ravishda, oilali de Renal xonimday ayolning sevgisiga erishadi (biz chet el asarini o‘qirkanmiz, o‘zbekchlikni bir chekkaga surib turishimiz kerak ekan).

O‘zining befarqligi, xotirjamligi tufayli esa haqiqatan sevmasa-da, kelajakda mavqega erishishiga yordam bera oladigan Matildaning e‘tiborini qozonib, uni o‘ziga oshiq qiladi. Jyulenning asl maqsadi ham faqatgina shuhrat qozonishi, jamiyatda o‘z mavqeyi, o‘rniga ega bo‘lish edi va buni o‘zi ham tan oladi. Bu yo‘lda hech narsadan tap tortmaydi. To‘g‘ri, voqealar rivojida biz undan nafratlanishimiz, tasavvurimizda salbiy, razil obraz sifatida gavdalantirishimiz mumkin. Qachonki, uning o‘rniga o‘zimizni ko‘rib qo‘ysakkina uni chin dildan tushunishimiz mumkin. Negaki Jyulenni yoshligidan, hattoki, o‘z oilasida ham o‘rni yo‘q edi. Onasi vafot etgan, otasi va akalari esa tinmay do‘pposlardi, o‘rganayotgan bilimiga sovuqqonlik bilan qaraydi(ayrim mana shunday hodisalar Stendal hayotida ham bo‘lgani ehtimoli ham bor). U zo‘rlilik va azobda ulg‘aydi.Kamsitishlar uni hayotda o‘z o‘rnini topish, shuhrat qozonishga chorladi. Hatto o‘rganayotgan bilimidan ham manfaati yo‘lida foydalanmoqchi bo‘ladi, ya’ni diniy bilim egallab, ruhoniylilik yoki do‘sti Fuke taklif qilgan tadbirkorlik yo‘li orqali obro‘, mansabga erishish. Uni hayot tarbiyaladi.

Aslida u yomon niyatli yigit emas, yuragida qoralik yo‘q. Maqsadiga to‘g‘ri yo‘l bilan erisholmasligini atrofidagi insonlar orqali tushundi va ularga, shunchaki, moslashib qoldi. Jamiyat uni o‘zgartirdi, qurbon qildi. Uning ichki tug‘yonlari orqali insonda toza qalb bo‘lsa ham uni, baribir, yo‘q qilishi mumkinligini ko‘rish mumkin. O‘sha davrdagi barcha yomonliklar unda jamlangan. Agar asar boshidagi Jyulen bilan asar so‘nggidagi Jyulenni solishtirsa, umr yo‘li davomida insonda kuzatiladigan

o‘zgarishlarga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Har birimiz maqsadimizga erishish yo‘lida to‘g‘ri qaror qabul qilishimiz kerak. Qandaydir manfaat ko‘zlab emas. To‘g‘ri, insonning har bir ishi manfaatga asoslanadi, masalan, butun dunyo psixologlarining o‘tkazgan tadqiqotiga ko‘ra, hattoki, sof, pok tuyg‘u bo‘lgan sevgiga ham biz yolg‘iz qolishdan qo‘rqqanimiz uchun erishmoqchi bo‘lar ekanmiz, ya‘ni bu ham o‘z manfaatimiz uchun. Ammo Jyulendek ilm yo‘lida emas. Ilmni kech qanday manfaatsiz, o‘z bilimimizni oshirish uchun o‘rganganimiz sari ko‘nglimiz yorishadi. Ibn Sino aytganidek, “Insonning bilim darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, u o‘zini shunchalik baxtli his qiladi”. Jyulen oxrida niyatini sir tutolmay, sudda burjuma tuzumini tanqid qilgani uchun o‘limga hukm etiladi.

De Renal (Luiza) xonim - dvoryan de Renal janobning ayoli, 3 nafar farzandning onasi. Juda go‘zal, sodda, taqvodor ayol. Hech qaysi erkakning xushomadlariga uchmaydi, ibosini saqlaydi, ammo o‘zidan 10 yosh kichik, bolalarining tarbiyachisi Jyulenni sevib qoladi va u uchun hamma narsaga tayyor bo‘ladi. Asar boshidagi ta‘rifidan kitobxonga xonimga nisbatan hurmat hissi paydo bo‘ladi, lekin turmush o‘rtog‘i bo‘la turib sevib qolgan, ibo - hayoga to‘g‘ri kelmaydigan ishlarni qilgach, undan nafratlana boshlaydi. Holbuki, har bir inson sevib, sevilishga haqqi bor, hatto de Renal xonimning vaziyatida ham shunday. Chunki Luiza xonim yoshligidan boy oilada tug‘ilgan, taqvoga berilgan, hech qachon sevmay, 16 yoshidayoq o‘zidan ancha katta dvoryanga turmushga chiqadi. U avval ham sevgi nimaligini bilmay, turmushga chiqqach ham bunday qo‘pol, dimog‘dor kimsadan mehr-muhabbat ko‘rmadi. Balki shuning uchun ham u Jyulendan mehr ko‘rib, sevgi qanday his ekanini tushunib, uni yo‘qotishdan qo‘rqib, u uchun har qanday ishga tayyor bo‘lgandir. Lekin o‘zi bu ishlarini noto‘g‘ri ekanini biladi, qaytmoqchi bo‘ladi (bolasining kasal bo‘lib qolganini unga berilgan Ollohning jazosi deb biladi), o‘zidan uzoqlashtirishga urinadi, ammo, baribir, uni chin yurakdan sevishda davom etdi. Yurakka buyruq berib bo‘lmaydi deb, shuni aytishsa kerak-da. Oradan ancha vaqt o‘tgan bo‘lsa-da, Matilda bilan to‘yi bo‘layotganini eshitgach, rashkdan ko‘zi ko‘r bo‘lib, birgina xat bilan to‘yni to‘xtatadi va Jyulen uni otib qo‘ysa-da, qamoqda uni ozod qilishlarini so‘raydi, uning azob chekmasligini istaydi, va Jyulen halok bo‘lgach, bu azobga chidolmay, deb Renal xonim ham 3 kun o‘tib bolalari bag‘rida dunyodan ko‘z yumadi.

Shuning uchun bu ikki obraz haqida ham faqat salbiy fikrda bo‘lmay, ularning ruhiyatini tushunishga harakat qilishimiz kerak. Asarda bundan tashqari de Renal janob va Matilda obrazlari ham voqealar rivojida ko‘p bora keltirilgan, ammo o‘ta murakkab obraz sifatida gavdalanmagan.

Stendal bu asarni bir maqolada xuddi shu taqdirdagi yigit haqida o‘qib qolib, ilhomlanib yozgan. Demak, o‘sha davrda bunday holat juda ko‘p uchragan. Muallifga bu yigitning qaysidir jihatlari yoqib qolib, uni asar qahramoni darajasiga ko‘targan. Olimlarning aytishicha, Jyulen hayotining ayrim hodisalari qaysidir ma’noda Stendalning hayotiga o‘xshash ekan. Negaki bir insonga boshqa bir inson xarakteri, hayoti yoqarkan, unda qisman o‘zligini ko‘radi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Atabayeva G.F. The sign content of “Ffu” novel // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, USA. 2022. – P.139-142. (Impact Factor - 8.0).
2. Atabayeva.G.F. “Humanizm in the novel of A. Yakubov” актуальные проблемы тюркологии: россия и тюрко-мусульманский 2021 МИП
3. Urazbayeva M., Burkhanova F., Pardayeva N., Atabayeva G., Qodirova M.. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. Journal of Advanced Zoology. 2023. 2184-2192 p.
4. Stendal “Qizil va qora” 2018-yil O‘qituvchi nashriyoti
5. O‘RAZBAYEVA Mahbuba. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. “Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an’anasi” mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman material. 2024-yil 25-yanvar, 28-32-betlar.
https://oriens.uz/media/conferencearticles/5_ORAZBAYEVA_Mahbuba_28-32.pdf.
6. Omanova, M. (2024). Nizomiy Ganjaviy merosining alisher navoiy ijodiga ta’siri. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 4(20), 24-27.
7. Kadirova M.N. Technological solutions and innovative digital tools. Netherlands.
<https://staff.tiame.uz/storage/users/829/articles/nyOCfZLWmrPLJiMMJmugxLcoqGUmIvB9cP2PPxaq.pdf>
8. Omanova, M. (2024). Bahouddin Naqshband to‘g‘risidagi ma’lumotlar aks etgan asarlar. “O‘zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari”. – Toshkent: 139-146.
9. Kalandarova, Dilafuz Abdujamilovna. "Research classification of Karl Reichl." *Current research journal of philological sciences* 2.11 (2021): 29-33.